

"MEHRLI MAKTAB" DA FIZIKA FANINI O'QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH METODIKASI

Nigora Alimova Isroilovna

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi direktori

Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (fizika)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7187948>

Annотatsiya. Mazkur maqolada Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasida fizika fanini o'qitishni individuallashtirish metodikasi va usullari haqida so'z boradi. Maqola davomida ushbu maktab tarixi va fizika o'qitishda duch kelinadigan muammolar hamda ularning yechimlariga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: "Mehrlı maktab", klinik immunologiya, gospital pedagogika, statsionar davolash-profilaktika muassasalari.

МЕТОДИКА ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В «МЕХРЛИ МАКТАБ».

Аннотация. В данной статье рассказывается о методике и методах индивидуализации преподавания физики в государственном образовательном учреждении «Мехрли мактаб» при Министерстве народного образования. По ходу статьи особое внимание уделяется истории этой школы и проблемам, возникающим при обучении физике, и их решениям.

Ключевые слова: «Мехрли мактаб», клиническая иммунология, госпитальная педагогика, стационарные лечебно-профилактические учреждения.

METHODOLOGY OF INDIVIDUALIZATION OF PHYSICS TEACHING IN "MEHRLI МАКТАБ".

Abstract. This article talks about the methodology and methods of individualizing the teaching of physics at the state educational institution "Mehrlı Maktab" under the Ministry of Public Education. In the course of the article, special emphasis is placed on the history of this school and the problems encountered in teaching physics and their solutions.

Keywords: "Mehrlı maktab", clinical immunology, hospital pedagogy, inpatient treatment-prophylactic institutions.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ta'limga qaratilyotgan e'tibor va keng ko'lamli ishlarning natijasi o'laroq 2022-yilning 5-mayida "Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorning natijasi sifatida bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi tashkil etildi va o'z faoliyatini boshladi.

Ushbu maktab "Zamin" fondi tomonidan Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirliklari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan gospital pedagogika sohasidagi

katta loyihaning natijasi hisoblanadi. Maktabda Zamin Creative ijod studiyasi ham ochilgan. Unda bolalar musiqa, tasviriy san'at va mediadan saboq olmoqda. IT-laboratoriya va sensorli xona ham bor. Shu bilan birga, maktab to'siqsiz muhit yaratish uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari, gospital pedagogika sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish modullari ishlab chiqiladigan va yaratiladigan metodologiya markazi sifatida ham xizmat qilmoqda.

“Mehrlı maktab” yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, Xalq ta'limi vazirligi huzurida tashkil etiladi. “Mehrlı maktab”da quyidagi maktabgacha guruhlar faoliyat ko'rsatishi mumkin:

- maktabgacha ta'lim gospital guruhlari – statsionar davolanayotgan, sog'lig'i sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bora olmaydigan 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etilgan guruhlar;

- ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo'ljallangan o'yin guruhlari – 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun statsionar davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etiladigan guruhlar. Ularda parvarish qilish va nazorat qilish ishlari ota-onalarning faol ishtirokida tashkil etiladi;

- maktabgacha ta'lim gospital guruhlari, ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo'ljallangan o'yin guruhlari.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, “Mehrlı maktab” o'z oldiga qator maqsadlarni qo'ygan, ular quyidagilardan iborat:

- Mehrlı maktabda davolanayotganlarning hayotga ijtimoiy moslashishini, ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumta'lim muassasalarida ta'limni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

- Mehrlı maktabda davolanayotganlarning hayoti va sog'ligi muhofazasini ta'minlash;

- ularga ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish.

Yuqoridagi maqsadlardan ko'rinib turibdiki, “Mehrlı maktab”larda darslarni samarali tashkil qilish yuqori pedagogik mahoratni talab qilishi bilan bir qatorda mas'uliyatli ish hamdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Davolanayotganlarni maktabgacha gospital guruhlarga qabul qilish “Mehrlı maktab” tomonidan taqdim etiladigan ro'yxatlar asosida amalga oshiriladi. Markazda davolanayotganlar uchun alohida ishlab chiqilgan o'quv rejasi asosida 1–11-sinflar hajmida umumiy o'rta ta'lim beriladi. Dars mashg'ulotining davomiyligi boshlang'ich ta'lim (maktab)ning 1–4 sinflarida – 35 daqiqa, 5–11 sinflarda – 40 daqiqa bo'ladi. Bunda bir kunlik dars mashg'ulotlari 1–4 sinflarda 3 soatdan, 5–11 sinflarda 4 soatdan oshmasligi lozim. O'quv haftasi davomiyligi 5 kunlik asosida olib boriladi.

Maktab bolaning to'laqonli reabilitatsiya bo'lishi, moslashishi va ijtimoiylashishiga, bu jarayonda ota-onalar ham qatnashishiga xizmat qilmoqda. Gospital maktab uchun pedagog va psixologlar tanlov asosida tanlab olingan, ular gospital pedagogika bo'yicha maxsus treninglardan o'tgan. O'qituvchi va murabbiylar jamoasi tibbiy xodimlar bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Bolalardagi immunitet tanqisligini hisobga olib, maktab o'ziga xos tibbiy talablarga muvofiq jihozlangan, gipoallergen materiallar bilan ta'minlangan. O'quv jarayonida faqatgina elektron darsliklar va har bir o'quvchiga alohida biriktirilgan kitoblardan foydalanilmoqda.

2022-yil 5-mayda Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim berishni tashkil etish to'g'risida Nizom (O'zR VM 05.05.2022 y. 234-son qaroriga ilova) imzolandi. Ushbu Nizom

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida (keyingi o'rinlarda - Markaz) davolanayotgan bolalarga maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini tashkil etish tartibini belgilaydi. Markazda davolanayotgan bolalarga maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini tashkil etish uchun Xalq ta'limi vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasi (keyingi o'rinlarda - Mehrlil maktab) tashkil etiladi. Mehrlil maktab o'z ustaviga, mustaqil balansga, shaxsiy g'azna hisob varaqlariga (davlat ta'lim muassasalari uchun), bank hisobvaraqlariga, Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga va blankalarga ega bo'ladi. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi: davolanayotganlar

- markazda tibbiy xizmat ko'rsatilayotgan 18 yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxslar;

-ta'lim va tarbiya xizmatlari - maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkil etish xizmatlari;

-asosiy maktab - davolanayotganlar doimiy yashash manzili bo'yicha ta'lim olayotgan davlat va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari.

TADQIQOT NATIJALARI

Rossiyada esa bu kabi maktab – Pyotr 1 davridan o'z faoliyatini boshlagan. O'qituvchilar matematika yoki boshqa fanlarni emas, iloji boricha bolalarni rivojlantiruvchi mashqlar, masalalar bilan masalan, ularga ertaklar va xikoyalar orqali, savol javoblar tariqasida shug'ullanishgan. Bu kabi metodlar ularni shaxsiyatini bolalik davridan shakllanishiga yordam berishiga ishonishgan. Shuning uchun kasalxonada bolalarga avvalo bemor emas, balki shaxs sifatida e'zozlanishiga sabab bo'lgan. Sobiq sovet davrida hamshiralari o'rniga maktab o'qituvchilari tashrifini ta'minlash boshlandi. Bundan maqsad esa, mamlakatda savodsizlikka qarshi boshlangan 5 yillik reja va bu rejaning amalida qo'llashga qaratilgan buyuk maqsadlar edi. Ya'ni, o'quvchi sog'ayib jamiyatga qaytganida nazariy va amaliy bilimlardan qolib ketmasdan davom ettirishdan iborat edi. 20- asrning oxirida kasalxonalardagi bolalarni o'qitish metodlari va usullarini o'zgartirish kerakligini, aks holda bundan keyingi ta'lim zerikarli va foydasiz ekanligi aniq bo'lib qoldi. 1988-yil pediatri Pavel Kornxauzerning tashabbusi bilan, YUNESKO va JSST ko'magida Sloveniyada gospital o'qituvchilar uchun birinchi Yevropa kongressi bo'lib o'tdi. Yevropa kasalxona maktablari assotsiatsiyasi, Yevropadagi Pedagoglarning kasalxona tashkiloti tuzildi. HOPE bolalar huquqlari va o'qituvchilarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Ushbu tashkilotning sharofati bilan, gospital pedagogikasi xalqaro tushunchaga aylandi. Uyushma a'zolari xorijlik hamkasblari bilan o'z tajribalari va fikr mulohazalar almashadilar. Shu tariqa gospital pedagogika sohasida qilingan samarali texnika va metodlar boshqa mamlakatlarda ham o'zlashtiriladi. 20 – asrning oxiriga kelib mafkuraviy siyosat, mafkuraviy qarashlar, mafkuraviy dunyoqarash kengaydi va bu mamlakatlar o'rtasida asosiy siyosiy jarayonga aylandi. O'qituvchilar maktabda smenalar tashkil qilib ishlashni boshlashdi. Uzoq davolanadigan o'quvchilarga esa kasalxonalarga yoki uy ta'limiga jalb qilindilar. Maqsad esa hali ham o'sha – o'sha, bemor bolalarni ta'limdan, maktabdan uzoqlashtirmagan holda bilim berishdan iborat. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalarning 10 tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalari haqida so'zlab bergan.

“Mehrlil maktab”da o'qitilayotgan har bitta fanning maqsadidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, boshqa fanlar qatorida fizika fanining ham o'z o'rnini va ahamiyoti bor.

Bilamizki, ushbu maktabning asosiy vazifasi bolalar bilan individual ishlashdir. Shuni hisobga olgan holda "Mehrli maktab"da fizika fanini o'qitish, avvalambor, o'quvchilarni zamonaviy fizika yutuqlari bilan tanishtirishni, ushbu fanning ilmiy-texnik taraqqiyotda tutgan o'rni va rolini ko'rsatib berishni hamda o'quvchilar ongida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni taqozo qiladi. Fizika tabiatdagi hodisa va voqealarni hamda ularning qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Inson ham tabiatning bir bo'lagi sifatida u bilan bevosita, doimo munosabatdadir. Tabiatdagi hodisalarning sirini bilish, ularning qonuniyatlarini aniqlash. asosan, insoniyatning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida olib boriladi. Shunday bo'lmasa, fizikaning yutuqlaridan foydalanib, tabiatni tubdan o'zgartirib yuborish mumkin edi. Jumladan, quyoshni xohlagan paytda chiqarib yoki botirib, yomg'irni esa kerak vaqtda yog'dirib, yozni qishga - kuzni yozga aylantirib qo'yar edik, Aslida esa bunday emas, bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun ham, tabiatda yuz beruvchi hodisalarni o'rganib, ularning yordamida insoniyatning yashashi uchun kerakli tabiat boyliklarini saqlashga, ulardan samarali foydalanish yo'llarini o'rganishga ko'nikishimiz kerak. Tabiiy fanlarning ichida fizika alohida o'rin egallagan uchun u, barcha tabiiy fanlarning poydevorini tashkil qiladi, deb aytiladi. Chunki fizika barcha tabiiy fanlarning yutuqlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan va qo'shib kelmoqda. Bunga misol qilib fizikaviy kimyo, kimyoviy fizika, biofizika, astrofizika, geofizika va boshqa duragay fanlarni ko'rsatish mumkin. Sir emaski, hozirgi kunda tibbiyotda ham fizikaning o'rni beqiyosdir, chunki uning hissasi dastlab Rentgen nurlaridan boshlangan bo'lsa, hozirgi kunda ultratovush va lazerlarning qo'llanilishi, qolaversa, kompyuter tomografiyasi orqali davom etmoqda. Shuningdek, insoniyatni energetik inqirozdan qutqarishda ham, fizika atom va yadro energiyalaridan foydalanishni kashf etishi orqali o'zining munosib hissasini qo'shmoqda va qo'shadi.

Hozirgi vaqtda ham bu sohada jadal tarzda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ular fizika fanini rivojlantirishadi, to'ldirishadi, insoniyatning yashashiga ijobiy ta'sir qiluvchi omillarini izlab topishadi. Fizikaning fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishiga buyuk mutafakkirlarimiz Roziy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar o'z vaqtida munosib hissa qo'shishganini hech qachon unutmasligimiz lozim.

Respublikada qabul qilingan uzluksiz ta'lim tizimi va uning har bir bosqichini samarali amalga oshishi, yosh avlodga jahon andozasiga mos bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirishni, ya'ni barkamol avlodni tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu ishlarni amalga oshirish, birinchi navbatda, pedagog o'qituvchilarning intellektual salohiyatiga bevosita bog'liq. Fizika o'qituvchisi, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug'ullanuvchi pedagoglar birinchi navbatda, chuqur bilim, yuksak pedagogik hamda metodik mahoratga va madaniyatga ega bo'lishi ilmiy-tadqiqot metodlarini egallagan bo'lishi zarur, shundagina uni yuqori ma'naviyatli jamiyat a'zosi deyish mumkin. Albatta, bunday darajadagi fizika o'qituvchisi, o'z sohasi bo'yicha yaxshigina tadqiqotchi bo'ladi, ya'ni pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil qilishni, uning maqsadini va olingan natijalarni tahlil qilishni yaxshi bilishi zarur. Qolaversa, bunday darajaga ega bo'lishi uchun, u, ilmiy metodologiyani va pedagogik tajriba-sinov ishlarining metodikasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

MUHOKAMA

Zamonaviy ta'lim kontsepsiyasi "Mehrli maktab" oldiga bir qator muammolarni qo'yadi, ularni hal qilish ko'pincha ta'limga yangi kompyuter texnologiyalarini keng joriy qilmasdan

mumkin emas. Har bitta o'quvchi bilan individual shug'ullanish va fizika fani haqida tasvurga ega bo'lishi uchun sharoit yaratishning yagona yo'li bu-darslarni kompyuterlashtirishdir.

Bugungi kunda fizika darsida asosiy narsani to'liq o'zlashtirishni kafolatlash uchun minimal o'quv soatlari bilan yetarli miqdorda ma'lumot berish kerak. "Mehrlı maktab"larni individuallashtirish o'qıtıshning yangı shakl va uslublarını faol joriy etıshni ham taqozo etadi. Shu maqsadda o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish samarali ko'rinadi.

8-9-10-11-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning salmoqli qismi qiyinchiliklarga duch keladi va fanga qiziqishi susayadi, ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarmaydi.

O'qıtıshga an'anaviy yondashuv bilan yangı bilimlarnı o'zlashtırıshga qiziqıshning yo'qolıshıga olib keladigan sabablar:

-An'anaviy o'qıtıshdan foydalanısh cheklangan vaqt bilan ma'lumotlar oqimini ko'paytırıshga mo'ljallangan, bu o'quvchılarning ijodiy salohiyatını to'liq ochib berıshga imkon bermaydi.

Tadqiqot elementlari fizikani o'qıtıshda, laboratoriya va amaliy ishlarda muhim tarkibiy qism sifatida to'liq qo'llanilmaydi: jihozlarning etarli emasligi yoki eksperimental modelning soddalashtirilganligi sababli talabalar kerakli qiymatlarni hisoblash va o'lchash uchun ko'p vaqt sarflashadi. xatolar, turli parametrlar bilan tajribani qayta-qayta takrorlashning mumkin emasligi.

Jismoniy muammolarni hal qilishda rasmiy yondashuv (ularni faqat qog'ozda hal qilish va olingan natijani amalda tekshirishning mumkin emasligi);

yetarlicha mablag' ajratilmaganligi sababli ko'rgazmali jihozlar bilan ta'minlanmaganligi;

Ba'zi jismoniy tajribalarni maktab sharoitida ko'rsatishning mumkin emasligi, ularning yuqori narxi yoki yuqori xavfliligi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Mehrlı maktab"da fizika darslarını samarali tashkil qilish uchun, avvalo, vaqtnı to'g'ri taqsimlay olishimiz kerak. Chunki bolalarning sog'ligi sabab vaqt ancha chegaralangan. Berilgan qisqa muddatdan samarali va o'rinli foydalanishimiz bolalarning fizika darslarına bo'lgan qiziqıshlarını oshırıshga sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/mirziyoyev/>
2. <https://lex.uz/docs/5992724>
3. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichimuhokama-qilindi>
<https://uza.uz/posts/33187>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. //Олий таълим меъёрий ҳужжатлари. — Т.: Шарқ, 2001. -ББ. 3-18
5. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида сўзлаган нутқи.2016 йил, 15 декабрь.
6. Afrina E.I; Fizika darslarida elektron pochtdan foydalanish. // Internet-ta'lim masalalari. - 2003. - 1-son.
7. Baranova Yu.Yu., Perevalova EA, Tyurina EA, Chadin EA. O'quv jarayonida elektron darsliklardan foydalanish usuli. // Informatika va ta'lim. - 2000. - 8-son. - G.43-47.
8. 6. Bepalko V.P. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari. - М .: Pedagogika, 1989 .-- 192 b.
9. Gomulina N.N., Mixaylov SV. Masofaviy ta'lim elementlari bilan interaktiv kompyuter kurslaridan foydalanish usuli // Fizika. - 2000 yil - 39-son. - 68-71.
10. Guzeev V.V. Mashg'ulotlarning tashkiliy shakllari va usullari. - М .: Xalq ta'limi, 2001 .-- 128 b.